

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOIY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмурадовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumaniyoz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужанпоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон угли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

NEOLOGISMS DENOTING GROUPS OF PEOPLE FORMED UNDER THE CONDITIONS OF THE COVID-19 PANDEMIC IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Avlaeva Saida Bozorovna,
Independent Researcher at Karshi State University,
Associate Professor

Abstract. This article provides a comprehensive linguistic analysis of neologisms denoting groups of people that emerged during the COVID-19 pandemic in English and Uzbek. The pandemic significantly transformed social life worldwide, leading to changes in communication practices, social behavior, and everyday experiences, which were promptly reflected in language. As a result, numerous neologisms appeared to describe new social groups, roles, and attitudes formed under pandemic conditions. The study examines the factors contributing to the emergence of these neologisms and analyzes their semantic, morphological, and pragmatic characteristics. Special attention is given to lexical units that reflect people's attitudes toward quarantine measures, mask-wearing, vaccination, social distancing, and isolation, as well as their social status and behavioral patterns. The article also explores the influence of English pandemic-related neologisms on the Uzbek language, highlighting processes of borrowing and linguistic adaptation within a specific cultural context. The findings demonstrate the flexibility of language in responding to rapid social changes and its role in conceptualizing global crises.

Keywords: COVID-19 neologisms, pandemic vocabulary, groups of people, English language, Uzbek language, semantics, morphology, pragmatics, social groups.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR

Avlayeva Saida Bozorovna,
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, dotsent
E-mail: saida.avlaeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada COVID-19 pandemiyasi davrida ingliz va o'zbek tillarida shakllangan kishilar jamoalarini ifodalovchi neologizmlar kompleks lingvistik tahlil qilingan. Pandemiya jahon miqyosida insonlarning turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari va kommunikatsiya shakllarida keskin o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlar tilda yangi leksik birliklar – neologizmlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Maqolada ushbu neologizmlarning yuzaga kelish omillari, semantik mazmuni, morfologik tuzilishi va pragmatik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, pandemiya davrida shakllangan ijtimoiy guruhlar, insonlarning xulq-atvori, ijtimoiy maqomi va pandemiyaga munosabatini aks ettiruvchi nomlarning tilda qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Ingliz tilida paydo bo'lgan ayrim neologizmlarning o'zbek tiliga kirib kelishi, moslashuv jarayonlari va milliy madaniy kontekstdagi o'ziga xos xususiyatlari ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari tilning ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvchanligini va pandemiya kabi global hodisalar leksik tizimni boyitishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: COVID-19 neologizmlari, pandemiya leksikasi, kishilar jamoasi, ingliz tili, o'zbek tili, semantika, morfologiya, pragmatika, ijtimoiy guruhlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N28>

COVID-19 pandemiyasi dunyo miqyosida ijtimoiy hayotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, yangi tushunchalar va hodisalarni ifodalash zaruratini tug'dirdi. Bu ehtiyoj, ayniqsa,

pandemiya sharoitida shakllangan kishilar jamoalarini ifodalovchi neologizmlarning paydo bo'lishida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu neologizmlar jamiyatdagi o'zgarishlar, yangi munosabat va qadriyatlarini aks ettirish bilan birga, turli lisoniy va ijtimoiy jihatlarni ham namoyon etadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida pandemiya davrida paydo bo'lgan va kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

COVID-19 pandemiyasi juda tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida, u bilan bog'liq yangi tushuncha va so'zlar paydo bo'ldi. Ushbu so'z va tushunchalar, nafaqat soha mutaxassisleri, balki keng jamoatchilik orasida ham qo'llanila boshladi. Tarixda yangi leksikaning hech qachon shunchalik qisqa vaqt ichida sinovdan o'tgani va ommaviy foydalanishga kiritilgani kuzatilmagan. Shu tariqa, COVID-19 pandemiyasi jahon miqyosida til va kommunikatsiya sohasida tezkor o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi [5]. Jumladan, Koronavirus pandemiyasining dunyo bo'ylab tarqalishi ilm-fan sohasini ham chetlab o'tmadi. Xususan, M. Asif, D. Zhiyong, A. Iram, M. Nisarlar hammuallifligida yozilgan "Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19)" mavzusidagi maqolada koronavirus pandemiyasi davrida tibbiyot hamda ijtimoiy sohada paydo bo'lgan neologizmlar tahlil qilingan [2].

Pandemiya sharoitida insonlar hayotida yuz bergan ko'plab ijtimoiy o'zgarishlar neologizmlarning faol shakllanishiga turtki bo'ldi. Ushbu leksik birliklarning katta qismi insonning kasbiy faoliyati hamda shaxsiy hayotida ro'y bergan transformatsiyalarning tildagi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Rus tadqiqotchilari N.A.Saburova va A.P.Kelmyashkinlar maqolasida koronavirus pandemiyasi davrida insonlarni nomlash uchun yaratilgan ingliz tilidagi neologizmlar tahlil qilingan [1; 182-b]. Bu neologizmlar "koronavirus ta'siriga uchragan inson" arxisemasi atrofida birlashadi va uchta kichik guruhga ajratiladi: 1) insonlarning xulq-atvori (masalan, *facenaked*, *corona-uber*, *covidiot*), 2) insonning holati yoki xususiyati (masalan, *coronic*, *coviddy*, *coronator*), 3) ijtimoiy maqomi (masalan, *keyworkers*, *coronallennial*, *quaranteens*, *Wuhan clan*). Ko'pgina neologizmlar leksik jihatdan so'zlashuv uslubiga mansub bo'lib, ular, asosan qoidalarni buzuvchi yoki xavfsizlik talablarini inkor qiluvchi shaxslarni salbiy yoki tanqidiy ma'noda tavsiflaydi. Shu bilan birga, *covidol* ba *coronator* kabi nomlar koronavirus xavfidan himoya qoidalariga rioya qiluvchi va infeksiyani yenggan shaxslarni ijobiy tarzda belgilovchi ma'no kasb etadi. Shu tariqa, neologizmlardagi konnotatsiyalar orqali koronavirus infeksiyasiga nisbatan xavf hissi, ijtimoiy munosabatlar va qoidalarga rioya qilishga bo'lgan munosabat aks ettirilgan.

Stilistik jihatdan neytral nominatsiyalar, asosan karantinni inkor qilishga majbur bo'lgan muhim sohalarda faoliyat yurituvchi shaxslarni ko'rsatadi. Masalan, *keyworkers* – «asosiy xodimlar»; shuningdek, o'z-o'zini izolyatsiya qilish davrida tug'ilgan avlodni belgilaydigan nom – *coronallennial*, ya'ni 2001–2007 yillarda tug'ilgan va 2020 yil koronavirus davrida o'smirlikka qadam qo'ygan bolalar. Ko'plab nomlar so'zlashuv uslubiga xoslangan bo'lib, ular publitsistik yoki rasmiy uslubda qo'llanmaydi. Eng umumiy ma'noni ifodalovchi nom – *coronic* – «koronavirus bilan infeksiyalangan shaxs»ni anglatadi.

So'zlashuv tilidagi nomlar, ko'pincha salbiy baho xususiyatiga ega ega: *facenaked* («jamoat joylarida niqob taqmaydigan shaxs»); *corona-uber* («koronavirusni jiddiy qabul qilmaydigan, ko'chalarga chiqib kasallikni tarqatadigan shaxslar»); *coronaroamers* (izolyatsiya qoidalariga quloq solmaydigan, o'ta xudbin kishilar); *covidiot* («bee'tibor va ahmoqona harakat qiladigan shaxs»); *quarantrolls* (quarantine+trolls) – «ijtimoiy tarmoqlarda

cheklovlardan qiynalayotganini bayon qiluvchi shaxslar»; *maskhole* (mask+asshole) – «niqobni noto'g'ri va befoyda taqadigan shaxs»; *morona* (moron+corona) – «pandemiya davrida ahmoqona harakat qiladigan shaxs»; *coviddy* – «koronavirusdan qo'rquv tufayli o'zgacha xulq-atvor ko'rsatuvchi shaxs» [3].

Neologizmlarning konnotatsiyalari koronavirus xavfini his qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni qabul qilish va qoidalarni buzuvchilarga nisbatan tanqidiy munosabatni aks etadi. Ijobiy bahoga ega neologizmlar ham mavjud: *covidol* (covid+idol) – «pandemiya davrida barcha xavfsizlik qoidalariga rioya qiluvchi shaxs»; *coronator* (Corona+terminator) – «koronavirusni yenggan shaxs». Shuningdek, alohida ahamiyatga ega neologizm – *Wuhan Clan* (Wuhan+Clan), osiyoliklar, xususan Uxandan chiqqanlar uchun qo'llaniladi va amerikaliklar hamda yevropaliklarning ulardan ehtiyotkor bo'lishi, shuningdek, Uxan aholisi bilan kontakt koronavirus yuqish xatarini keltirishi to'g'risidagi taassurotlarni aks ettiradi.

Kasbiy sohadagi o'zgarishlarni ifodalovchi neologizmlar orasida pandemiya ta'sirida vujudga kelgan yangi kasblar va faoliyat turlarini ifodalovchi terminlar alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ingliz tilidagi *space marshal* termini ijtimoiy masofani saqlash hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi mas'ul shaxsni anglatadi. Shuningdek, *joy strategist* [4] neologizmi insonlarning psixologik holati va shaxsiy farovonligini yaxshilashga qaratilgan kasbiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassisni ifodalaydi.

Shaxsiy hayot va o'zaro ijtimoiy ta'sir shakllaridagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi neologizmlar orasida quyidagilarni ifodalovchi birliklarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Pandemiyani «boshdan kechirish»ga majbur bo'lgan shaxslarni ifodalovchi neologizmlar:

quaranteen [3] – o'smirlik davri pandemiya sharoitiga to'g'ri kelgan o'spirin;

lockdowners [3] – o'zini o'zi qat'iy izolyatsiya qilish (lokdaun) rejimida bo'lishga majbur bo'lgan shaxslar.

2. Ijtimoiy aloqalarning cheklanishini aks ettiruvchi o'zgarishlar:

social bubble [3] – cheklov choralari yumshatilgan davrda uchrashishga ruxsat etilgan do'stlar va qarindoshlarning kichik guruhi;

double bubble [3] – izolyatsiya sharoitida bo'lgan, bir-biri bilan uchrashishga ruxsat etilgan ikki oila;

quaranteam [3] – izolyatsiya davrini birgalikda o'tkazgan shaxslar guruhi.

3. Insonlarning pandemiya, shuningdek u bilan bog'liq ko'rsatma va cheklovlarga bo'lgan munosabati:

Ijtimoiy xulq-atvorning o'ziga xos jihatlari lokdaun zarurligini inkor etuvchi hamda niqob taqish rejimiga qarshi chiquvchi shaxslarni ifodalovchi leksik birliklarda o'z aksini topadi. Shuningdek, vaksinatsiyaga qarshi yoki uni rad etuvchi shaxslarni ifodalovchi atamalar ham kuzatiladi: Bundan tashqari, ingliz tilidagi corona moaner atamasi koronavirus sababli doimiy ravishda xavotirlanib yuruvchi shaxsni anglatadi.

Pandemiya ingliz tilida kishilar jamoasini ifodalovchi bir qator neologizmlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, bularning har biri o'ziga xos ijtimoiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Zoomers neologizmi Zoom platformasi orqali masofaviy ta'lim olgan yoki ishlagan avlodni ifodalash uchun ishlatildi. Bu termin, ko'proq, masofaviy hayot tarziga moslashgan yoshlar guruhini ifodalaydi.

Quaranteam neologizmi karantin davrida birga yashagan yoki doimiy aloqada bo'lgan kishilar guruhini ifodalaydi. Bu termin do'stlar yoki oila a'zolarining pandemiya davrida bir-biriga yordam berish va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqish maqsadida tashkil etgan guruhlarini tasvirlashda qo'llanilgan. "Urban Dictionary" onlayn lug'atida bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: *The people you choose to live with during a coronavirus quarantine*. Misollarga murojaat qilamiz: *My girlfriend lives by herself, so my roommates and I have included her in our quaranteam* [6].

Doomscrollers neologizmi doimiy ravishda yomon xabarlarini (ayniqsa, pandemiya bilan bog'liq) izlab topib o'qiydigan va bundan kayfiyati tushib ketadigan odamlarni ifodalash uchun ishlatildi. Bu neologizm pandemiya davridagi psixologik holatni, xususan, doimiy xavotir va stressni aks ettiradi. Bu termin psixologiya va ommaviy axborot vositalarining ta'sirini o'rganuvchi tadqiqotlar uchun qiziqarli manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. *Obsessively reading social media posts about how utterly fucked we are. I've got to stop doomscrolling about covid-19, it's making me depressed*.

The Unmasked neologizmi niqob taqishdan bosh tortgan odamlarni ifodalab, jamiyatdagi shaxsiy erkinlik va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Bu termin falsafa va huquqshunoslik nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lib, inson huquqlari, javobgarlik va ijtimoiy normalar kabi masalalarni o'rganishda qo'l keladi.

O'zbek tilida pandemiya davrida kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlarning paydo bo'lishi o'zbek jamiyatida ijtimoiy va lingvistik jarayon sifatida qaraladi. Pandemiya insonlarning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, yangi tushunchalar va ularni ifodalaydigan so'zlarning yaratilishiga zarurat tug'dirdi. Bu jarayonda o'zbek tili tegishli yangi nom va atamalar yaratilishi natijasida yangilandi: odamlarning karantin qoidalariga rioya qilishi yoki uni buzishi, o'z-o'zini izolyatsiya qilish holati, xavfsizlik choralari qo'llashi va ijtimoiy faollik kabi xususiyatlar leksik jihatdan aks ettirildi. Masalan, ijtimoiy maqom va avlodni ifodalovchi yangi nomlar shakllandi: qonunchilik va ijtimoiy ahamiyatga ega sohalarda faoliyat yurituvchi xodimlar, o'z-o'zini izolyatsiya qilish (samoizolyatsiya) davrida tug'ilgan va koronavirus davrida o'smirlikka qadam qo'ygan avlod. Shuningdek, ijobiy va salbiy xulq-atvorni, xavf va xavfsizlikka bo'lgan munosabatni ko'rsatuvchi atamalar ham paydo bo'ldi. Bu jarayon o'zbek tili lug'at tarkibini yangi lug'aviy birliklar yasaliishi orqali kengaytirdi va pandemiya davridagi ijtimoiy voqelikni leksik jihatdan aks ettirishga xizmat qildi.

O'zbek tilida pandemiya davrida kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlarning paydo bo'lishi o'zbek jamiyatida ijtimoiy o'zgarishlar va yangi munosabatlarning yuz berganligini ko'rsatadi:

Onlayn avlod neologizmi COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim olgan yoshlar guruhini ifodalash uchun qo'llandi va ularning axborot texnologiyalariga moslashuvchanligini yaqqol ko'rsatdi.

Karantindoshlar neologizmi karantin davrida birga yashagan yoki doimiy aloqada bo'lgan kishilar guruhini ifodalaydi.

Niqobsizlar neologizmi niqob taqishdan bosh tortgan odamlarni ifodalash uchun ishlatildi. Xuddi ingliz tilidagi "The Unmasked" kabi, bu termin ham o'zbek jamiyatidagi shaxsiy erkinlik va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi

qonunchilik hujjatlarida bu mavzuga oid huquqiy asoslar va javobgarlik masalalarini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, o'zbek tilida koronavirus bilan bog'liq qator neologizmlar paydo bo'ldi: *Koronavirus karantini, "uyda qol" iborasi, niqob rejimi, masofaviy o'qitish, kovidiot, kovidfobiya, covid shoki, Covid pasporti, Covid qahramoni* va b.

O'zbek tilida bu kabi neologizmlarning ilmiy tadqiqi hali yetarli emas, ammo ularning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilishi o'zbek jamiyatida ham pandemiya bilan bog'liq yangi guruhlar va munosabatlar shakllanganini ko'rsatadi.

Yuqorida bayon qilinganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillarida COVID-19 pandemiyasi davrida paydo bo'lgan kishilar jamoasini ifodalovchi neologizmlar ingliz va o'zbek jamiyatida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Bu neologizmlar jamiyat a'zolarining yangi guruhlari, yangicha munosabatlar va pandemiya davrida shakllangan ijtimoiy dinamikani ifodalash uchun xizmat qiladi. Ularning tahlili tilning jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashuvchanligi va yangi ijtimoiy hodisalarni ifodalashga qodirligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Сабурова Н.А., Кельмяшкин А.П. Семантическая характеристика англоязычных неологизмов о пандемии коронавирусной инфекции // Международный научно-исследовательский журнал, №6 (108), Часть 5, 2021. С 181-184.
2. Asif M., Zhiyong D., Iram A., Nisar M. Linguistic analysis of neologism related to coronavirus (COVID-19). Social Sciences & Humanities Open. Volume 4, Issue 1, 2021.
3. Cambridge Dictionary: [Электрон ресурс]. URL: <https://dictionary.cambridge.org> (мурожаат санаси: 15.12.2025).
4. Merriam Webster [Electronic resource] / 2021 Merriam-Webster, Incorporated. – URL: <https://www.merriam-webster.com> (мурожаат санаси: 12.12.2025).
5. The fun of New Words [Электрон ресурс]. URL: <https://www.macmillandictionaryblog.com/the-fun-of-new-words> (мурожаат санаси: 19.12.2025).
6. Urban Dictionary [Электрон ресурс]. URL: <https://www.urbandictionary.com> (мурожаат санаси: 20.02.2025).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).